


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya
(Xoreografiya jamoasini boshqarish)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		
1.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari.....	5
1.2.3.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	6
2.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	9
2.3.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya	10
2.3.2.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar...	10
2.3.3.	70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i.....	13

1. 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.

70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) magistratura mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi.

1.1.1. 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo’llanilishi.

Malaka talabi *70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish)* magistratura mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

-mazkur magistratura mutaxassisligi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

-magistratura mutaxassisligining o’quv reja va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

-magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

-ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

-oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

-oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatni nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

-kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

-oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslari.

1.2. 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.

1.2.1. 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o’qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining san’atshunoslik institutida, O‘zbekiston Respublikasining San’at va madaniyat institutlarida hamda tashkilotlarida, xoreografiya sohasi va turli badiiy, ijodiy, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat ta’lim yo’nalishlarida pedagogik faoliyat, ilmiy, ilmiy-ijodiy yo’nalishlarida ta’lim beruvchi akademik, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va muassasalarida, xoreografiya bilan bog‘liq ilmiy-ijodiy markazlarida, xalq va kasbiy ijodiyotida xoreografik-tarixiy va nazariy merosni o’rganish va o’z ijodida foydalanadigan xoreografik-sotsiologik hamda ilmiy-tadqiqot ishlar bilan shug‘ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar, davlat boshqaruvi organlari, mumtoz, xalq sahna, o‘zbek raqs, ommaviy tomoshalarni sahnalashtirishda rahbarlik qilish va baletmeysterlik san’atida mutaxassislarni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi metodlar va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob’yektlari:

- Akademik teatrlarida pedagogik va repetitorlik faoliyat;
- Oliy ta’lim muassasalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining san’atshunoslik instituti;
- O‘zbekiston Respublikasining San’at va madaniyat instituti;
- Ommaviy tadbirlarda baletmeyster-sahnalashtiruvchi, baletmeyster-repetitor faoliyatini yuritish va rahbarlik.

Mutaxassislik bo’yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo‘shimchalar va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.3. 70211601–Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo’yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- Ilmiy- ijodiy faoliyat;
- Ijodiy - texnik faoliyat;
- Ilmiy-pedagogik faoliyat;

- Tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70211601–Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari:

70211601 – Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchilari quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- Oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimiga mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;
- ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish qobiliyatiga ega bo'lish;
- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning) masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va amaliy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy - ijodiy faoliyatida:

- xoreografiya san'atining turli janrlarida yuksak badiiy xoreografik asarlar yaratishni rejalashtirish va amalga oshirish;
- kompozitsiyaning umumiy ilmiy asoslari, baletmeysterlik san'atining rivojlanish tarixi va xususiyatlarini hisobga olib, sahna uchun xoreografiya asarlarini yaratish;
- teatr va badiiy jamoalar uchun zamonaviy xoreografiya asarlari yaratish;
- turli raqs badiiy jamoalari uchun yuqori mahorat bilan xoreografiya asarlarini sahnalashtirish;

- xoreografik obrazlar tuzish tizimlari, kompozitsiyalarni rivojlantirishda alohida ijrochi va ansambllar imkoniyatlarini inobatga olish;
- xalq ijodiyotining asosiy janrlari va shakllaridan oqilona foydalana bilish;
- davlat tadbirlarida ommaviy sahnalashtirish jarayonlarini tashkil etish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

Ijodiy - texnik faoliyatida:

- ijodiy va sahnalashtirish maydonchalari hamda xizmatlarida (raqs liboslarini tanlay bilish, zamonaviy yoritish uskunalari, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar fonogrammasini yaratish, zamonaviy musiqiy sintezatorlar, musiqiy kompyuter dasturlaridan samarali foydalana bilish), tashkiliy – boshqaruv va iqtisodiy sohalarda ishlash;

- xoreografiya sohasiga oid konsert dasturlarini tashkil qilish bo'yicha faoliyat olib borish;

- rejissyor, dirijyor, rassom, dramaturg, kompozitor, raqs libosi ustalari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish.

Ilmiy-pedagogik faoliyatida:

- Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish;

- ilmiy-ijodiy tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

Tashkiliy-boshqaruv va ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- sohaga oid loyihalarni boshqarish, ish jarayonlarini rejalashtirish, ko'zda tutilmagan texnogen holatlarini tahlil qilish va tegishli chora-tadbirlar ko'ra bilish;

- ish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbir qilish;

- xoreografiya jamoasiga rahbarlik qilish faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ijodiy ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

- mutaxassisligiga tegishli ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini va ilmiy jamoani boshqarish;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

2. 70211601–Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning mohiyatini anglashi;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;

- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

- o'z faoliyatida meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy-tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining, raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar :

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirish;

- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondoshish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy o'quv va ko'nikmalarni ta'minlash;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

- tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash, tavsiyalarni ishlab chiqish;

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini shakllantirish;

- fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, nazariy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, muassasa va tashkilotlarning funksional faoliyati va meyoriy-huquqiy hujjatlar doirasidagi muayyan vazifalarni bajarish asosida kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish;

- professional jihatdan ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar va vakolatlarni shakllantirish ko'nikmalarini hosil qilishi;

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

2.3. 70211601–Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi o’quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy va tanlov** fanlarini o’zlashtirishi, ilmiy amaliyotlarni (stajirovka) o’tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko’nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

Majburiy fanlar - mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to’ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo’yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo’lgan fan bo’yicha talabaning mashg’ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Tanlov fanlari -ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo’yicha qo’shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan mutaxassislikdan qat’iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar.

Ilmiy faoliyat -bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o’zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

2.3.1. Kvalifikasiya: X.oreografiya jamoasi rahbari, tadqiqotchi-pedagog.

2.3.2. 70211601–Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar:

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1200	40
Tanlov fanlar	600	20
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70211601–Xoreografiya san'ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning ma'naviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turidarining nomiari	Umumiy yukiamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1200	40	
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	PTPM1106	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat	180	6	1
1.03	XSRT11208	Xoreografiya san'atida raqamli texnologiyalar	240	8	1,2
1.04	XM1123012	Xoreograf mahorati	360	12	1,2,3
1.05	O'RSA1204	O'zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti	120	4	2
1.06	KRP1206	Klassik raqs pedagogikasi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlari	600	20	3,4
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
3.01	ITIMDTHHQ1 4036	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI123012	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IA(TO)24012	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	2,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55



OKS 01.040.01

Kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'yekti, ijodiy va ilmiy faoliyat turlari, kompetensiya, modul, profil, oliy ta'lim muassasasi, malaka talablari, o'quv fanlar bloki, asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ta'lim jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, ishlab chiqarish, magistrlik dissertatsiyasi, davlat attestatsiyasi, ilmiy tadqiqot.

Xoreografiya, raqs, baletmeyster, rejissyor, ijodiy tadqiqot, tanqid, spektakl, ijro, jamoa, kompozitsiya, dramaturgiya, ilmiy ekspedisiya, libretto, leksika, ijro shakllari, mustaqil tadqiqotchilik, fan, texnika va texnologiyaning, muassasa va tashkilotlarning funksional faoliyati, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kasbiy ko'nikmalar, elektron bilim manbalari, loyihalash.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:


O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Rektor  **SH.Toxtasimov**
2023 yil " " "
M.O' _____

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh.Yakubov**
2023 yil " " "
M.O' _____


**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm
vazirligi Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish
boshqarmasi**

Boshqarma boshlig'i  **N.Kasimov**
2023 yil " " "
M.O' _____


O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor v. b.  **E.Shermanov**
2023 yil " " "
M.O' _____


O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor  **K.Urinbayev**
2023 yil " " "
M.O' _____

**O'zR FA San'atshunoslik
instituti**

Direktor  **Sh.Pidayev**
2023 yil " " "
M.O' _____

**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
davlat akademik Katta teatri**

Direktor  **R.Usmanov**
2023 yil " " "
M.O' _____

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ _____ ” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Sh.Toxtasimov, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.v.b E.Shermanov hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayevlar birgalikda O‘zDXAda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o‘quv reja si mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70211601 – Xoreografiya san’ati va xoreografiya (Xoreografiya jamoasini boshqarish) mutaxassisligi malaka talablari hamda o‘quv reja ni ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiklash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iktisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tog‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa xujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv reja ni o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.v.b

E.Shermanov

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori

K.Urinbayev

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori

Sh.Toxtasimov

